
CHEKKA QISHLOQDAGI MAKTABLAR ZAMONAVIY KO'RINISHGA EGA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son qaroriga asosan Farg'ona viloyati Rishton tumani "Yoyilma" MFY hududida 220 o'rinli maktab binosini mukammal ta'mirlash va 180 o'rinli qo'shimcha o'quv binosi qurilishi uchun 4 mlrd. 367 mln. 880 ming so'm mablag' ajratilgan. Ayni kundarda "Marg'ilon Binokor Ta'mir Qurilish" MChJ tomonidan 25 - umumiy o'rta ta'lim maktabida kapital ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan. Yangi o'quv yilida mazkur maktab zamonaviy ko'rinishga ega bo'ladi.

2022-08-10 11:06:29